

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETINING QARSHI IRRIGATSIYA VA
AGROTEKNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**“Geodeziya va geoinformatika sohasini rivojlanish istiqbollari: muammolar va
yechimlar”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

DASTURI

19-20-aprel



Qarshi – 2024

4. Mashg'ulotlarni guruh ,jamo'a, yakka ko'rishlarda o'tkazish.
5. O'qituvchi va ta'lim oluvchi vazifalarining teng olib borish.
6. O'quvchilarga qulay shart-sharoit va erkinlik yaratish.

Bu kabi omillar dars jarayonining mukammal o'tishini ta'minlaydi. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy ta'limning asosiy shartlaridan biri bu pedagogic metodlardan foydalanishdir. Pedagogik metodlar- o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materiallarini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini bildiradi. Dars jarayonining ko'rgazmali , diqqatni tortuvchi, auditoriyani jamlovchi, qiziqtirish xususiyatiga ega uslubdir. Hozirgi kunga kelib ta'limda ko'plab sinalgan metodlar yaratildi va ular ta'limga joriy etildi. Buning natijasida ta'lim sifati ,darsni o'zlashtirish darajasi o'zgardi. Ta'limda natijadorlik kuzatildi. Respublikamiz ta'lim tizimi o'zgarishi bilan yutuqlar salmog' ham ortdi. Buning natijasida oldingi yillarga nisbatan kadrlarning kuchli bilim egasi va to'g'ri qaror qabul qiluvchi rahbarlar yetishib chiqishiga asta sekinlik bilan poydevor yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoev SH. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus. Elektron manba: <https://www.gazeta.uz./oz/2019/04/03/5-tashabbus/>
2. Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.
3. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrative yondashuv. – T.: Fan, 2005, - 157 b.
4. Muqumova D., Yarova S. Pedagogning boshqaruv mahorati texnologiyalari // Suv resurslaridan samarali foydalanish: muammo va echimlar (janubiy viloyatlarda sug'oriladigan erlar misolida) Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi shahri. 2022. 11-12 –mart, b -715.
5. Muqumova D., Yarova S. Yoshlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish istiqbollari // "Ilm fan ta'limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, taklif va yechimlar" ilmiy-ommabop konferentsiya 2022. 10 avgust <https://doi.org/10.5281/zenodo.7014565>

MOTOBLOKLAR VA ULARNING ISHCHI JIHOZLARINING TAHLILI

Sh.Z.Xudoyberdiyev

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya

va agrotexnologiyalar instituti

“Umumtexnik fanlar” kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Motoblok hamda uning ishchi jihozlari ish jarayonlari ishchi qismning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini uning parametrlariga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlaridan iborat.

Kalit so'zlar: Motoblok, ishchi jihoz, tuproq, dvigatel, qamrov kengligi, dizel.

Annotation: The working processes of the motoblock and its working equipment consist of the laws of changing the agrotechnical and energetic performance of the working part depending on its parameters.

Keywords: Motoblock, implement, soil, engine, range, diesel.

Аннотация: Рабочие процессы мотоблока и его рабочего оборудования состоят из законов изменения агротехнических и энергетических показателей рабочей части в зависимости от ее параметров.

Ключевые слова: Мотоблок, орудие, грунт, двигатель, запас хода, дизель.

Motoblok ishlash prinsipi dvigatelning aylanma harakatini g'ildiraklarga berishiga asoslangan. Qo'shimcha uskunalarni aylanuvchi qismga ulash mumkin. Motoblokni boshqarish o'rnatilgan dastak orqali amalga oshiriladi, bu dastakda tormoz, tezlikni o'zgartiruvchi tugmalar o'rin olgan[2].

Motobloklarni quyidagicha sinflash mumkin:

- yengil sinfdagi motobloklar;
- o'rta sinfdagi motobloklar;
- og'ir sinfdagi motobloklar.

Yengil sinfdagi motobloklar dvigatel quvvati 3,5 - 6 o.k., massasi 70 kg gacha bo'lib, uzatmalar soni – 2/1; bajaradigan ish turi – yerga va qator orasiga sayoz ishlov berish hisoblanadi. Bunday motobloklarning asosiy ishchi jihozi tuproq frezasi va kultivator iborat bo'ladi (1.1-rasm).

Yengil sinfdagi motobloklar qo'llaniladigan yer maydoni – 30 sotixgacha bo'ladi [4].



1.1-rasm. Yengil sinfdagi motobloklar

O'рта sinfdagi motobloklar dvigatel quvvati 7 - 13 o.k., massasi 130 kg gacha bo'lib, uzatmalar soni oldinga 2 tani, orqaga 1 tani tashkil etadi. O'рта sinfdagi motobloklar yerga va qator orasiga sayoz ishlov berish bilan birga ekish, hosil yig'ish ishlarida ham qo'llaniladi. Bunday motobloklarning asosiy ishchi jihozi plug, freza, kultivator, tirma, o'g'it sepkich, seyalka, kartoshka ekkich, kartoshka kovlagich, o'rgich va boshqalar hisoblanadi (1.2-rasm).



1.2-rasm. O'рта sinfdagi motobloklar

O'рта sinfdagi motobloklar 1 gektargacha yer maydoniga ega xo'jaliklarda qo'llanilishi mumkin.

O'рта sinfdagi motobloklar ko'p hollarda faqat frontal o'rgich-taxlagich bilan jihozlanib, o'rim agregati ko'rinishida ham ishlab chiqariladi.

Og'ir sinfdagi motobloklarning dvigatel quvvati esa 9 - 14 o.k, ni, ayrim hollarda 18 o.k. ni tashkil etadi, massasi 300 kg gachani tashkil etadi. Ularda uzatmalar soni oldinga 6 ta, orqaga 2 ta bo'ladi. Og'ir sinfdagi motobloklar tortish quvvati ancha yuqori bo'lganligi uchun ularning bajaradigan ish turi ham juda keng hisoblanadi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Og'ir sinfdagi motobloklar

Og'ir turdagi motobloklar yerga ishlov berish, ekish, hosil yig'ish, qurilish va melioratsiya ishlarida ham qo'llaniladi. Shunga mos ravishda ular juda keng turdagi ishchi jihozlari – keng qamrovli plug, freza, kultivator, tirma, o'g'it sepkich, seyalka, kartoshka ekkich, kovlagich, o'rgich, chuqur yumshatkich, transport tirkamasi va boshqalar bilan jihozlanishi mumkin.

Og'ir sinfdagi motobloklardan 3 gektargacha bo'lgan yer maydonida foydalanish mumkin. Bu ulardan bog'dorchilik va sabzavotchilik xo'jaliklarida ham keng foydalanish imkonini beradi.

Bundan tashqari motobloklar dvigatel turiga qarab farqlanadi va benzin dvigatelli va dizel dvigatelli motobloklarga bo'linadi.

Benzin dvigatelli motobloklar ishlashida past shovqin solishi va kuchsiz vibratsiyasi bilan ajralib turadi. Ular tez va yaxshi ishlaydi, ammo yoqilg'i sarfi yuqori bo'ladi. Ularni kichik maydonlardagi ekinni qayta ishlash uchun ishlatish maqsadga muvofik [3].

Dizel dvigatelli motobloklar kuchli tortish quvvati bilan maqtana oladi. Dizel yoqilg'isi benzindan ko'ra kamroq sarf bo'ladi. Ammo motoblok baland shovqin solib, boshqaruvchiga kuchli vibratsiya beradi. Bunday texnikani katta dalalarda ishlatish o'rinli.

Motobloklar yana qamrov kengligi va uzatmalar soni bo'yicha ham sinflanadi.

Yerga ishlov berishda qamrov kengligiga ko'ra 60-70 sm va 80-130 sm qamrov kengligiga ega motobloklar bo'ladi.

60-70 sm qamrov kengligiga ega motobloklar kichik hovli tomorqasida yoki tig'izroq ekilgan sabzavotlarni ekish, qayta ishlash uchun qulay hisoblanadi.

80-130 sm haydash kengligiga ega motobloklar katta maydonlarni haydash uchun, fermer xujaliklari uchun ma'qul tanlov bo'ladi[1].

Motobloklar uzatmalar soniga qarab: 2 oldinga va 1 orqaga yurish tezligi, 2 har tomonga yurish tezligi hamda 4 oldinga va 2 orqaga yurish tezligiga ega motobloklarga bo'linadi. Tezligi yuqori bo'lgan motobloklar arava qo'shib ekinlarni tashishda ham qo'llaniladi. Har xil turdagi yerlarni qayta ishlash uchun tezliklar turlicha bo'lishi ko'p qo'l keladi. Orqaga yurish tezligi ensiz, aylanib olish imkoniyati yo'q joylarda ishlatiladi.

Yurish qismiga qarab g'ildirakli va zanjirli motobloklar mavjud.

Hozirda talab mavjudligi sababli botqoqbop yerlarda foydalanish uchun zanjirli yurish qismiga ega motobloklar ham ishlab chiqarilyapti (1.4-rasm).



1.4-rasm. Zanjirli yurish qismiga ega motobloklar

Hozirda O'zbekiston bozorlarida motobloklarning narxlari 6 million so'mdan boshlanib, dvigatel ot kuchiga qarab 15 million so'mgacha borib yetadi. Dizel dvigatelli turlari benzinlilariga qaraganda qimmatroq bo'ladi (farqi 1-2 million so'm). Bozorlardan motoblokka qo'shib qo'shimcha anjomlarni ham sotib olish mumkin. Motobloklarni sotib olishda avvalambor ekin maydonining kengligiga, qanday yonilg'i turida foydalanish ma'qulligiga va xo'jalikning ichki imkoniyatiga qarab ish tutiladi.

Motobloklarning ishchi jihozlariga to'xtaladigan bo'linsa, ular 40 dan ortiq ishchi jihozlar bilan jihozlanishi mumkin (1.5-rasm).

Bular motobloklarning quvvatiga qarab 1 va 2 korpusli pluglar, freza, mola tekislagich, seyalka, kultivator, dori sepkich, dori purkagich, segment-barmoqli va rotorli o'rgich, kartoshka kovlagich, aravacha, egat ochkich, o'q ariq olgich, pol olgich, kartoshka ekkich, suv pompasi va boshqa yana ko'plab jihozlar bilan jihozlanishi mumkin [3].



1.5-rasm. Motobloklarning ishchi jihozlari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamatov F.M, I.G'.Temirov. Qishloq xo'jaligi mashinalari. – Toshkent: Voris-Nashriyoti., 2019. 631b.
2. Hojiyev A.H., Temirov S.U. Paxtachilik chopiq kultivatori tajribaviy ish organining parametrlarini asoslash //Yosh olimlar – qishloq xo'jalik fani va amaliyotini yuksaltirishda yetakchi kuch mavzusidagi ilmiy–amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent: Agro ILM, 2008. – B. 174–179.
3. <https://www.google.com/search>
4. www.einboeck.at

BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI, BOSHQARUVDA INSON OMILI BOSH TAYANCH SIFATIDA.

Yarova Sevara Boxodir qizi

50. **Shog‘darov D.D.**-Lalmi yer maydonlari degradatsiyasini monitoring qilishda geofazoviy texnologiyalarini qo‘llashda xorijiy tajribalari.
51. **Shog‘darov D.D.**-Lalmi yer maydonlari degradatsiyasini monitoring qilishda geofazoviy ma’lumotlarning roli va ahamiyati
52. **Shog‘darov D.D., Baratova N. O’**-Masofadan zondlash texnologiyalari orqali qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini baholash.
53. **Shog‘darov D.D., Xazratqulov S. Z.**-Qurilish ishlarida geodezik o‘lchov ishlarini amalga oshirish va tahlil qilish “qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti” misolida.
54. **Shog‘darov D.D., Mahmudov D. O.**- Kadastr loyihasini elektron shaklga keltirish.
55. **Shog‘darov D.D., Mahmudov D. O.**- Yuqori aniqlikda nivelirlash usullari
56. **Suyunov Sh., Xudoyqulov Sh., Rahmatullayeva K., Isakov M.**-Davlat kadastrini yuritishda energetika obyektlariga raqamli texnologiyalarni qo‘llash afzalligiligi

IV – SHO‘BA. QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY KADRLAR TAYYORLASH

Rais: “Umumtexnik fanlar” kafedrasi mudiri B.Muqimov

kotib:D.D. Shog‘darov

1. **P. Norbo‘tayev.** - Xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan qissalarning amir temur hayoti va faoliyatidagi o‘rni hamda ahamiyati masalasi.
2. **Shukurova O.P., Nizomov Sh.M.** - Issiqlik almashtirgichlar uzatish funksiyalarini hisoblash.
3. **Shukurova O.P., Salimov M.A.** - Past haroratli separatsiyalash jarayonini hisoblash algoritmi.
4. **Muqimova D. I., Jo‘raboyev Sh. J.** - Ta‘lim metodlari va vositalari.
5. **Muqimov B.R., Raximov L.** - Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyat va uning rivojlanishi.
6. **Sh. Karaev** - Khiva khan muhammad rahimkhan feruz palace literary environment and literary evenings.
7. **Sh. Karaev** - Shaibani sultan abdulla khan II literary evenings.
8. **Sh. Qorayev-** Manbalarda shayboniylar hukmdori ubaydulloh sulton adabiy majlisleri tarixi.
9. **F. Qurbonova** - Fors – tojik shoiri kamoliddin binoiyning o‘zbekcha she‘rlari.
10. **U.Ochilov**-Yosh avlodni turli xil buzg‘unchi oqimlar va ma‘naviy tahdidlardan himoya qilish usullari.
11. **Pirimov O.J., Jalilov Sh.R.** - Absorbsion quritish jarayonining uzatish funksiyasi koeffitsientlarini hisoblash.
12. **A.M. Тургунов** - Повышение качества преподавания специальных дисциплин для специалистов гидромелиорации с применением цифровых технологий.
13. **E. Arabov** - Jismoniy tarbiya va inson sog‘ligining bir – biriga chambarchas bog‘liqlik masalasi.
14. **Jo‘rayeva. G.A., Tuvalov.X.R.** - **Shaxslararo muloqot va muomala psixologiyasi.**
15. **Jo‘rayeva. G.A., Ortiqov Z.B.** – **Pedagogning imidji va mahorati.**
16. **Jumanov A., Qurbonov M.O** - Bugungi kun pedagogi va zamonaviy ta‘lim tizimi.
17. **Jumamurodova U.M., Mahkamov M** - O‘smirlik davrida shaxs shakllanishi va psixologik xususiyatlari.
18. **Suyunova A** - Alisher Navoiy asarlari manbalarining o‘ziga xos xususiyatlari.
19. **Mahmadaminov M** - Analyses of national-cultural specificity of realia in English in the story “Sun, Moon, and Talia” (Giambattista Basile).
20. **A.R.Ergashov** - Ta‘limda mobil ilovalarning o‘quv-uslubiy ta‘minotni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati.
21. **Jumanov A. A., Ibragimov Sh.F.** - Ta‘lim turlari va ta‘limni tashkil etish shakllari. Dars ta‘limini tashkil etishning asosiy shakli.
22. **Sh.Z.Xudoyberdiyev** - Motobloklar va ularning ishchi jihozlarining tahlili.
23. **Yarova S.B., Bosimov A.O’** -Boshqaruv psixologiyasi, boshqaruvda inson omili bosh tayanch sifatida.
24. **Yarova S.B., Sultanov Sh.R** - Yetuklik davri psixologiyasi.